

## PROFILAKTIKA INSPEKTORINING SOG'LIQNI SAQLASH MUASSASALARI BILAN HAMKORLIGI

*O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 311-guruh kursanti*  
**Fayziyev Hasan Raxmatillaevich**

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, Profilaktika inspektori fuqarolarning sog'lig'iga qarshi huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olishda sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorligidagi faoliyatini takomillashtirishning ilmiy - nazariy va metodologik asoslari hamda ushbu faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy asoslari, ularning amaliyotdagi tahlili va ularga nisbatan rasmiylashtirilgan hujjatlar. Shuningdek muammolar va kamchiliklar, hamda ularning bartaraf etish bo'yicha bir qator takliflar yoritib berilgan.*

**Аннотация:** *Актуальность темы данной научной статьи заключается в том, что научно-теоретические и методические основы совершенствования деятельности профилактического инспектора во взаимодействии с учреждениями здравоохранения по выявлению и предупреждению нарушений здоровья граждан, а также правовых норм основы, регулирующие эту деятельность, их анализ на практике и в отношении них формализованных документов. Также освещены проблемы и недостатки, а также ряд предложений по их устранению.*

Ilmiy maqolaning dolzarbligi: " O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarda umume'tirof etilgan xalqaro huquqiy normalarda mustahkamlangan inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, uning hayoti, sog'lig'i, qadr-qimmati va boshqa qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi. Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlarini muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash - bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: «Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash - amalga oshirilayotgan barcha islohotlar samaradorligiga erishish, aholi turmush darajasini oshirish, mamlakatda tinchlik, totuvlik va barqaror vaziyatni ta'minlashning asosiy kafolatidir», - deb takidlab, barcha islohotlar eng avvalo inson manfaatlariga xizmat qilish uchun qaratilganligi alohida urg'u berib kelmoqdalar.

Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorligining dolzarbligi shundan iboratki, ushbu mavzu bo'yicha yangi tartibdagi qonunlar asosida kamchiliklar keltirib o'tilgan. Hozirgi kunda asosiy muammolar shaxsning tan jarohati bilan bog'liq jinoyatlar va "ASR VABOSI" bo'lmish giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarni oldini olish jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan harakatlar hisoblanadi.

Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorligi quyidagi muammolar mavjud;

- Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorligida muayyam bir qonun hujjatlari orqali vakolatlari keltirilib, qanday hamkorlik qilishni bilishmasligi;

- hozirgi kunda giyohvandlikning yangi turiga aylanib borayotgan aql idrokka ta'sir etuvchi dori vositalarini shifokorlar tavsiyasiga ko'ra sotilishini tartibga solinmaganligi;

- Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorligi faqat sodir etilib bo'lgan jinoyatlar xususida bo'lib qolgan xolos, ularni oldini olishga qaratilgan qa'tiy choralar ko'rilmagan;

- OITS va OIV, ter-tanosilga chalingan shaxslarni bilan hamkorlikda ishlar olib borilmagani;

- Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorligida amalga oshirgan ishlarni yetarlicha nazorat qilib turilmaganligi;

- Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorligi faqat jinoyat sodir etilganini oldini olish jarayonlar faqat payshanba "Profilaktika" kundan boshqa kunlari oldini olish choralari ko'rilmaganligi;

- Teri-tanosil va narkologiya kabi dispanserlarga tekshirish uchun yuborilgan shaxslar faqat eskitdan qolib ketgan ro'yxatlardan tekshirilib qolinayotganligi va boshq.

Bu kabi muammo va kamchiliklarni bartaraf etishning asosiy yo'nalishlaridan biri bu profilaktika inspektorlari mahalla kesimida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning aniqlanishi va oldini olish samaradorligini oshirishda davlat sog'liqni saqlash muassasalari bilan amalga oshiradigan hamkorlikdagi faoliyatini takomillashtirishga e'tibor qaratishlari lozim. Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlik - ma'muriy hududdagi kriminogen vaziyatni doimiy ravishda tahlil qilib borish, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarlik-lar profilaktikasi, ijtimoiy-ruhiy muhitni sog'lomlash-tirish, krimino-gen omillarni zararsizlantirish va bartaraf etish, xulqi, hayot tarziga ko'ra jinoyat sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash hamda ularga tarbiya-viy-profilaktik ta'sir ko'rsatish, sodir etilgan jinoyatlarni ochish, qidi-ruvdagi jinoyatchilarni aniqlash va ushlab, huquqbuzarliklar-ning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha barcha sub'yektlar-ning qonun va qonunosti hujjatlarida belgilangan vakolatlar, usul va shakllar asosida, kelishilgan tartibda birgalikda faoliyat olib borishlaridir.

O'zbekistan Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunida davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari huquqbuzarliklarning profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar tizimiga kirishi belgilanib, bu boradagi vakolatlari hamda boshqa davlatorganlari va jamoat tuzilmalari bilan o'zaro hamkorlik qilish qayd etilgan.

Ichki ishlar organlari bilan davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari xodimlari o'rtasidagi hamkorlikning asosiy yunalishlari:

birinchidan, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, shuningdek yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish, ularni keltirib chikaruvchi sabab va sharoitlarni aniqlash xamda bartaraf etish;

ikkinchidan, surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaxarvandlikka muhtalo bo'lgan bemorlar, ruhiy kasallar va boshka shu kabi shaxslarning majburiy davolanishini ta'minlash;

uchinchidan, hayot va sog'liqqa qarshi qaratilgan jinoyat va ma'muriy huquqbuzarliklariing oldini olish, ularning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

to'rtinchidan, hududda sodir etilgan xavf va sog'liqqa qarshi qaratilgan jinoyatlarni o'z vaqtida, «issiq izi»dan ochishdao'z aksini topadi;

beshinchidan, davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari ijtimoiy ahamiyatli kasalliklar va atrofdagilar uchun xavf soluvchi boshqa kasalliklar tarqalganligi haqida; badaniga shikast yetgan yoxud bexush holatda bolgan shaxslar kelib tushganligi yoki murojaat etganligi haqida; odamlarning hayotiga yoki sog'ligiga tahdid soladigan oilaviy-maishiy nizolar to'g'risida va oilaviy-maishiy munosabatlar sohasidagi huquqbuzarliklar haqida; voyaga yetmagan shaxs g'ayriijtimoiy xulk-atvorga va huquqbuzarliklar sodir etishga jalb etilganligi haqida; huquqbuzarliklar sodir etilgandan keyin 48 soat ichida voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi, joylashtirish to'g'risida sudga iltimosnoma yuborish uchun meteriallarni tayyorlaydi. Iltimosnoma va voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish zaruratini tasdiqlovchi materiallar ichki ishlar organi boshlig'i yoki uniig o'rn bosari tomonidai markaz joylashgan, yerdagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shaxar) sudiga yuboriladi. Mazkur iltimosnoma ichki ishlar organi uni taqdim etgan paytdan e'tiboran 24 soat ichida jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shaxar) sudining sud'yasi tomonidai yopiq sud majlisida yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

Ilmiy o'rganishimiz natijasida Hozirgi kunda O'zbekiston fuqarolik jamiyati tomon harakat qilib borishiga asosiy e'tibor bu fuqarolarni sog'lom va huquqiy himoyalanganlik bilan bir butunlikni tashkil etadi. Bunda ichki ishlar organlarining hukuqbuzarliklar faktlari haqida sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorligini yo'lga qo'yish kerak bo'ladi. Ichki ishlar organlarining hukuqbuzarliklar faktlari haqida sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda quyidagi kamchilik va muammolar kuzatilmoqda:

- ayrim sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan huquqbuzarlilar faktlari haqida ichki ishlar organlariga o'z vaqtida xabar berilmayotganligi;

- tan jarohati olgan shaxslarga tayinlangan sud tibbiyot ekspertizalarining xulosalari olish belgilangan muddatdan o'tib ketayotganliklari;

- ma'muriy hududda tan jarohati bilan bog'liq huquqbuzarliklarni ichki ishlar idoralarida ham sog'liqni saqlash organlarida ham yashirish holatlarining kuzatilayotganligi;

- Profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan vazifalari normativ-huquqiy hujjatlarda yetarli darajada yoritilmaganligi;

- joylarda tekshiruvlarda ko'z bo'yamachalikka yo'l qo'yilayotganligi, ularni tekshiruv faqat ro'yxat ko'rishdan iborat bo'lib qolyotganligi natijasida alkogolizm, giyohvandlikka va teri - tanosil kasalliklariga chalinganlar soni oshib borayotganligi;

- ma'muriy hududda amalga oshiriladigan "tibbiy tekshiruv"ga jalb qilingan tibbiy uskunlarning kamligi va zamonaviy emasligi;

- ayrim joylarda tan jarohati bilan murojaat qilgan shaxslarga yetarli darajada tibbiy xizmat ko'rsatilmayotganligi va boshqalar.

Ushbu holatlardan kelib chiqib quyidagi takliflarni berib o'tish kerak:

- profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorligi bo'yicha doimiy profilaktik chora tadbirlar amalga oshirilishga doir huquqiy asos shakllantirish maqsadga muvofiq;

- profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorligini kuchaytirish maqsadida sog'liqni saqlash organlari barcha ma'lumotlarni o'z vaqtida IIOga yetkazib turishni yanada kuchaytirish;

- profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida aholining sog'lig'i hamda salomatligini oshirish bo'yicha umumiy profilaktik ishlarni jadallashtirish;

- ma'muriy hududda tan jarohati bilan bog'liq huquqbuzarliklarni yashirish holatlarining oldini olish maqsadida javobgarlik masalasini kuchaytirish choralarini ko'rish;

- ma'muriy hududda zudlikda amalga oshiriladigan "tibbiy tekshiruv"larni o'z vaqtida aniqlaydigan tibbiy uskunlarni ko'paytirish;

- profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasida sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan vazifalarini normativ-huquqiy hujjatlarda kengroq yoritish choralarini ishlab chiqish kabi dasturlarni yo'lga qo'yish lozim.